

AL-FORABIYNING O'RTA ASR MUSIQA ILMIDA TUTGAN O'RNI

Baltaniyazov Sarsenbay Aytmuratovich
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Nukus filiali professori

Annotatsiya. Farobiyning ijodida matematika fani bilan mustahkam aloqador - musiqa ta'limiga alohida urg'u berganligi, o'zi yashagan davrda zamonasi o'tkir sozanda, musiqa madaniyatining yirik arbobi sifatida tanilganligi, allomani san'atida ham benazir bo'lgan, hattoki o'zi musiqa asbobini yasaganligi haqqida so'z bo'ladi.

Аннотация. Речь пойдет в творчестве Ал-Фарабий которое тесно связано с математикой, особое внимание уделяют музыкальному образованию в своем веке был великим композитором, его творчество композитора было необычным, и даже сам дела музыкальные инструменты своими руками.

Annotation. The speech will go about creative activity Al-Farabiy which is closely connected with mathematics, emphasizes spared music formation in his century was a great composer hu creative activity of the composer was unusual, and even mode the musical instruments their own hands.

Kalit so'zlar: San'at, madaniy aloqa, musiqa, cholg'u asbobi, ud, tanbur, nay, rubob.

Ключевые слова. Искусство, культурный связь, музыка музыкальной инструмент, уд танбур, най, рубаб.

Keywords. Art, cultural connect, music, musical instrument ud, tambur, nay, rubab.

O'zbekiston Respublikasi o'z milliy mustaqilligini qo'lga kiritgach, ilm-fan va taraqqiyotning oydin yo'liga chiqib oldi. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolarimizni, ayniqsa, yosh avlodni yuksak vatanparvarlik va insoniylik ruhida tarbiyalashdek muayyan maqsadlarga yo'naltirilgan. Joriy kunda avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlarni davr ruhidan kelib chiqqan holda qayta haqqoniy baholash jarayon tusini ola yozdi. Ayni pallada «haqiqat, tarix haqiqati bolalarimiz uchun suv va havodek zarur. Tarix haqiqati to'laligicha keyingi avlodga etkazish har bir inson kelajak oldidagi muqaddas burchi sanaladi» [1; 282-284 b.]. Binobarin, xalqimizning asrlar mobaynida to'plangan boy tajribasini targ'ib qilish va uzviy davom ettirish jamiyat oldiga muhim vazifalarni ko'ndalang qo'yadi. Moziy zarvaraqlariga nazar tashlasak, moddiy ishlab chiqarish dehqonchilik, ziroatchilik, hunarmandchilik, amaliy san'at hamda madaniyat sohasida mustahkam rishta mavjudligi ayonlashadi. Mamlakat aholisi baqamti istiqomat qilish barobarida irrigatsiya tizimi, kasanachilik, to'qimachilik, kulolchilik jabhalarida jiddiy yutuqlarga

erishishgan, metall buyumlar yasashda Markaziy Osiyoda amaliy san'atning ajoyib namunalari yaratilgan, me'morchilik jahon arxitekturasi bilan bo'ylashadigan darajaga ko'tarilayozdi. Ayniqsa, fan va adabiyot sohasida kuzatilgan o'sish o'zgarishlar jahon madaniyatini boyitishga xizmat qiladi.

Ma'naviyat gulshanini to'ldirishda buyuk allomalarimizdan Abul Abbas, al-Farg'oniy (IX asr). Abu Nasr Muhammad al Forobiy (X asr). Abu Rayhon Muxammad ibn Ahmad al-Beruniy (XI asr). Abu Ali ibn Sino (XI asr). Sayfiddin Abdulmo'min al-Urmaviy (XII asr). Muxammad Tarag'ay Ulug'bek (XV asr) merosi alohida o'rin tutganini ta'kidlash joiz [3; 115-117 b.].

XV asrning yirik markazi bo'lgan Hirotda taniqli shoirlar Binoiy, Xotifiy, Jomiy, Hiloliy, o'zbek mumtoz she'riyati yulduzi Alisher Navoiy samarali ijod qilishgan. XVI, XVII, XVIII, XIX asrlarda Turdi, Mashrab, Mahmur, Muqimiy, Furqat, Zavkiy, Avaz O'tar o'g'li o'z ijodlarida sharq klassik poeziyasi ilg'or adabiy an'alarini to'la namoyish etishgan.

Madaniyat muayyan pog'onasida «insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmaydi. Xalqimizning hayotida musiqa azaldan beqiyos o'rin tutib kelgan. Samarqand yaqinidagi Mo'minobod qishlog'idan 3 ming 300. yil muqaddam suyakdan yasalgan nay cholg'u asbobi topilgani ham shundan dalolat beradi» [2; 155-157 b.]. Shu ma'noda, san'at mazmun-mohiyati muttasil tarzda inson idrok sezgisini tarbiyalash missiyasiga ijobiy ta'sir o'tkazish uchun xizmat qilib kelgan.

Mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining «Zafarnoma» kitobida, Amir Temur davrida o'tkazilgan musiqa anjumanlarga to'xtalib, «Yaxshi ovozli xonandalar ko'ylashni boshlab, g'azalu naqsh aytur edilar. Va turku mug'ul, xitoyu arab va ajamdin har kim o'z rasmi bilan nag'ma aytur erdi», degan ma'lumotlarni keltiradi [4; 131 b.]. Demak mumtoz musiqiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va kelgusi avlodga bezavol hayotning o'zi muayyan ehtiyojga aylantirib qo'yadi. Bosib o'tilgan tariximizga murojaat qilsak, albatta she'riyat bilan barobar musiqa san'ati ham ravnaq topganligi qabarib ko'rinadi. O'rta asr yozma manbalarida bir qator mashhur sozandalar, shoirlar, san'atkorlarning nomlari qayd qilinadi. Aynan «O'rta Osiyo musiqasi haqida qimmatli ma'lumotlarni IX asrdan buyon saqlanib kelayotgan yozma manbalardan olish mumkin. O'rta asrlarda musiqa matematika va astronomiya kabi fanlarning yagona turkumiga kirganligi bois taniqli madaniyat arboblari o'nga o'z asarlaridan joy ajratganlar, shuningdek, uning nazariy asoslariga maxsus risolalar bag'ishlaganlar» [5; 32-35 b.].

O'z davrida musiqa ta'limiga g'oyat katta e'tibor qarattan. Markaziy Osiyo allomalari orasida qomusiy bilimlar sohibi Muxammad Forobiy alohida o'rin egallaydi. «X-XII asrlar Uyg'onish pallasi Turonzamin xalqlari tarixidagi ilk Renesseans» [6; 140 b.] tarzida tarix solnomasiga muhrlangan.

Forobiy Markaziy Osiyoda faoliyat yuritgan paytidayoq matematika fani bilan mustahkam aloqador musiqa ta'limiga alohida urg'u bergan. U o'z zamonasi o'tkir sozandasi, musiqa madaniyatining yirik arbobi sifatida tanilgan. Alloma joriy bosqichda ijrochilik san'atida ham benazir bo'lgan. Professor M.Rahmonovning ta'kidlashicha, «Zaynat-al-majoli» asarida Ray shahrining vaziri Sohob Abbod huzurida o'tgan ziyofatda Forobiyning ijrochilik mahorati haqida quyidagicha bayon qilinadi: «u yonidan bir cholg'u asbobini olibdi, bu asbobni Forobiy o'zi kashf etgan bo'lib, ko'rinishi kichik qovoqqa o'xshab ketar ekan va gijjak deb yuritilar ekan. Forobiy u asbobni kuyning birinchi qismini chalganda o'tirganlarning hammasi mashqdan nihoyatda xursand bo'lishibdi va kulishibdi. Kuyning ikkinchi qismi eshituvchilarni yig'latibdi, ularning ko'zidan yoshlar chiqibdi, uchinchi qismi ijro etilganda esa eshituvchilarning hammasi hayajonga tushibdilar, so'ng uxlab qolibdilar» [7; 206]. Demak, cholg'u asboblari ilohiy kuchga ega va u inson ruhiy kamolotida o'ziga xos o'rin egallaydi.

Olim falsafa va siyosiy masalalar bilan uzviy bog'liq holda ta'limni isloh qilish va samaradorligini oshirish, yosh avlodni tarbiyalash hamda metodika muammolarini teran taxlillaydi. Etika va estetika muammolari bo'yicha u noyob ilmiy tavsiyalar va amaliy g'oyalarni ilgari suradi. Tom ma'noda Forobiy o'rta asrlarda aniq fanlar sirasiga kirgan musiqa nazariyasi asoschilaridan biri sanaladi. Turli sohalarda muhokamadan o'tgan musiqiy san'at talqini muallif ijodida salmoqli o'rinni egallaydi. Uning «Kitob ul-Musiqiy al-Kabir», «Qalam fi-l-Musiqiy» hamda «Kitob fi-ixso-al-ulum va at'rif» («Fanlarning tasnifi va tavsifi haqida kitob») fundamental tadqiqoti nihoyatda mashhur bo'lgan. Bu asarlar musiqa fani va madaniyati sohasida keyin amalga oshirilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga ham sezilarli darajada ta'sir o'tkazgan.

«Kitob ul-Musiqiy al-Kabir» asari mundarijasi haqida Forobiy quyidagilarni yozadi: «Birinchi qismida musiqa usulini topishga qo'llanma bo'luvchi masalalar haqida o'zimning maxsus yo'l-yo'rig'imni boshqalarning yo'l-yo'riqlariga aralashmasdan turib ishga solaman. Ikkinchi qismida mashqur nazariyotchilarning musiqa haqidagi fikr-mulohazalarni keltirdim. Bu haqida ochiq oydin bo'lgan narsalarni zikr etaman va ularning fikr-mulohazalarini diqqat bilan tekshirib borib, musiqa bobidagi daraja hislarini aniqlayman hamda xatolarini tuzataman.

Musiqa haqidagi asarimning hammasi uch jilddan iborat. Birinchi kitobida musiqa bo'limining usul-qoidalari va unga bog'lik bo'lgan turli narsalarni o'rganishga to'xtab o'tamiz. Ikkinchi kitobda zamonaviy musiqa asboblari ud, tanbur, nay, rubob, chang va boshqalar haqida suhbat qilamiz. Shu asboblardan har birining imkoniyatlarini qayd qilamiz va ulardan qanday foydalanish haqida baxs yuritamiz. Uchinchi kitobda turlicha bo'lgan tovushlarning navlari haqida suhbat bo'lishi» keltiriladi [8; 17-20 b.].

Forobiy o'z asarlarini o'sha zamon rasmiy tili arab tilida yozgan bo'lsa-da, ularni yaratishda Yunon va boshqa sharq xalqlari musiqa fanini o'rganish bilan birga o'z vatanining va o'z xalqining musiqa an'analari asos qilib olganligiga o'z-o'zidan ayon bo'lmoqda. Negaki, O'rta Osiyoda Ellin davrida, undan keyin ham professional va xalq musiqa san'ati taraqqiyoti cho'qqilarini egallagan va uning boy urf-odatlarini Forobiy yashagan davrgacha etib kelgan.

Forobiy asarlari xorij olimlari e'tiborini ham o'ziga tortgan desak, adashmagan bo'lamiz. Chunkiy uning X-asrda arab tilida yozilgan musiqa asarlari haqida ingliz olimi X.Farmerning «XII asrgacha bo'lgan arab musiqasi tarixi» kitobida va «Forobiyning G'arbiy evropadagi musiqaga oid asarlarga ta'siri» to'g'risidagi maqolalarida, shuningdek, e.Beyxerning nemis tilida chiqqan «Forobiy ta'limotida musiqa ilmi», frantsuz sharqshunosi R.de Erlanjeniig «Arab musiqasi, uning qonuniyati va tarixi» asarlarida Forobiy ijodi haqida nodir ma'lumotlar berilgan [9; 12-14 b.].

Arab ochiq universiteti uzluksiz ta'lim markazi bosh direktori Faxad al-Mekred «Mamlakatingiz, xususan, Samarkand azaldan ilm-fan va madaniyat o'chog'i bo'lgan. Bu yurtidan Ibin Sino, Forobiy, Zamaxshariy, Beruniy kabi butoq olimlarning etishib chiqishi va ular dovrug'i butun olamga ketgan ham bejiz emas» deya e'tirof etadi.

Umuman, Forobiy ijodida musiqa nazariyasi muayyan ma'noda amaliy ishlangan. Unda san'at amaliy va nazariy mohiyati, uning o'zaro bog'likligi, madaniyat solnomasida tutgan o'rni atrofida tahlillangan. Joriy holat musiqa san'ati shakllanishi va takomilida alohida bosqichii tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aitmuratovich B.S. THE ROLE OF MUSICAL HERITAGE IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 1. – С. 282-284.
2. Aitmuratovich B.S. WISE TO USE THE MUSICAL ART OF THE MEDIEVAL ORIENTAL SCIENTISTS //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 01. – С. 155-157.
3. Aytmuratovich B.S. FROM THE HISTORY OF KARAKALPAK JIRAW AND BAKSI //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 01. – С. 115-117.
4. Балтаниязов С.А. ДӘСТАНДЫ ДРАМАҒА АЙЛАНДЫРЫҰ ДӘСТҮРИ //ТАРАЗ МЕМЛЕКЕТТИК ПЕДАГОГИКАЛЫҚ УНИВЕРСИТЕТИНІҢ ХАБАРШЫСЫ. – С. 131.

5. Балтаниязов С.А. РОЛЬ И РАЗВИТИЕ СЛУХА //Ученый XXI века. – 2022. – №. 1 (82). – С. 32-35.
6. Йўлдошева С.Х. Ўзбекистонда мусика тарбияси ва таълимнинг ривожланиши. Т. «Ўқитувчи» 1985.
7. Рахимов М. Ўзбек театри. Т.1975.
8. С.А.Балтаниязов. Головной и грудной резонаторы. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti xabarлари. 2023. №2. -С. 17-20.
9. С.А.Балтаниязов. Мажбурий даъис. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali San’at va madaniyat axborotnomasi ilmiy-uslubiy jurnali. 2023. №1. -С. 12-14.